

# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2021- yil yanvar-dekabr

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:  
**11 326,5 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati:  
**103,2 %**

### Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**3 142,4 mlrd. so'm**

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:  
**8 184,1 mlrd. so'm**

Joriy davrda 11 326,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 71,6 % jalb etilgan mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 28,4 % moliyalashtirildi.

#### Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:  
**1 346,3 mlrd. so'm**

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:  
**132,3 mlrd. so'm**

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:  
**750,5 mlrd. so'm**

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:  
**913,3 mlrd. so'm**

#### Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :  
**1 629,2 mlrd. so'm**

Korxona mablag'lari:  
**1 587,6 mlrd. so'm**


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:  
**888,5 mlrd. so'm**

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:  
**4 078,8 mlrd. so'm**

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 36,0 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 14,4 %, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 14,0 %, Respublika byudjeti 11,9 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 8,1 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 7,8 %, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 1,2 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 6,6 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar  
(jami hajmdagi ulushi, % da)**





## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>11 326,5</b>	<b>103,2</b>	<b>100,0</b>
Respublika byudjeti	1 346,3	163,0	11,9
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	132,3	-	1,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	750,5	611,6	6,6
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	913,3	122,2	8,1
Korxona mablag'lari	1 587,6	135,4	14,0
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	888,5	106,4	7,8
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	4 078,8	69,7	36,0
Aholi mablag'lari	1 629,2	114,9	14,4




**Shahar va tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>11 326,5</b>	<b>103,2</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh. <i>tumanlar</i>	1 559,6	117,0	13,8
Oltinsoy	391,4	102,5	3,5
Angor	406,1	181,9	3,6
Bandixon	169,4	231,2	1,5
Boysun	1 635,4	45,7	14,4
Denov	1 379,9	195,6	12,2
Jarqo'rg'on	511,6	78,0	4,5
Qiziriq	346,1	180,2	3,0
Qumqo'rg'on	553,2	146,8	4,9
Muzrabot	395,0	109,1	3,5
Sariosiyo	1 575,3	185,3	13,9
Termiz	976,5	104,0	8,6
Uzun	302,3	110,8	2,7
Sherobod	737,1	103,9	6,5
Sho'rchi	387,6	121,2	3,4


## ***Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar***

### **Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da**



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Bandixon tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 231,2 %, Denov tumanida 195,6 %, Sariosiyo tumanida 185,3 %, Qiziriq tumanida 180,2 % va Termiz shahrida 117,0 % ni tashkil etdi.

## *Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga oʼzlashtirilgan investitsiyalar*



**jamiga nisbatan, % da**

Asosiy kapitalga oʼzlashtirilgan investitsiyalarning hajmi boʼyicha hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,4 % oʼzlashtirildi.


Shuningdek Boysun tumanidan keyingi oʼrinda Sariosiyo tumani – 13,9 % ni tashkil etmoqda.

Termiz shahri va Denov tumanlarida ushbu koʼrsatkich mos ravishda – 13,8 va 12,2 % ni tashkil etdi.

Termiz hamda Sherobod tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 8,6 va 6,5 % ni tashkil etgan boʼlsa, Bandixon tumani bu koʼrsatkich boʼyicha eng kami boʼldi – 1,5 %.




## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 6 421,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 3 762,1 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga – 1 143,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 6 138,2 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 54,2 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 3 155,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 27,9 % ini tashkil etdi. Qolgan 17,9 %, yani – 2 033,0 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



jamiga nisbatan, % da

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 1 812,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 16,0 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 364,6 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,2 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish – 823,7 mlrd. so'm (7,3 %);

Tashish va saqlashda – 980,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,7 % o'zlashtirildi.




## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar			Investitsiya-lar	Kafolatlan-magan kreditlar
<b>Surxondaryo</b>	<b>4 992,2</b>	<b>2 239,2</b>	<b>2 753,0</b>	<b>2 213,1</b>	<b>1 865,8</b>	<b>26,1</b>	<b>1 839,7</b>
Termiz sh. tumanlar:	488,8	229,1	259,7	203,0	170,0	26,1	143,9
Oltinsoy	106,8	40,3	66,5	40,3	66,4	-	66,4
Angor	180,1	19,1	161,0	19,1	121,0	-	121,0
Bandixon	17,6	13,8	3,8	13,8	3,3	-	3,3
Boysun	1 400,1	1 275,8	124,3	1 275,8	124,0	-	124,0
Denov	605,9	146,9	459,0	146,9	379,0	-	379,0
Jarqo'rg'on	81,1	9,0	72,1	9,0	71,2	-	71,2
Qiziriq	174,7	65,9	108,8	65,9	108,4	-	108,4
Qumqo'rg'on	298,0	-	298,0	-	127,2	-	127,2
Muzrabot	115,4	13,8	101,6	13,8	101,4	-	101,4
Sariosiyo	545,8	106,1	439,7	106,1	66,7	-	66,7
Termiz	426,7	45,6	381,1	45,6	339,3	-	339,3
Uzun	111,9	111,6	0,3	111,6	-	-	-
Sherobod	286,2	92,8	193,4	92,8	104,7	-	104,7
Sho'rchi	153,1	69,4	83,7	69,4	83,2	-	83,2

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar




### jamiga nisbatan, % da

Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi qayta ishslash sanoati o'zlashtirilib, u 1 543,4 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 30,9 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni tog'-kon sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 1 352,2 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 27,1 % o'zlashtirildi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha - 620,3 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha – 334,2 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.

## Foydalanishga topshirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 1 292,6 ming kv.m bo'lgan 6989 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 1 017,9 ming kv.m bo'lgan 5514 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Denov tumanida ishga tushirilgan 165,2 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,8 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Sariosiyo va Sherobod tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 11,6 va 11,3 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(76) 225-65-59